| **92.** | O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini joyida hal qilish va aholini ortiqcha ovvoragarchiligini oldini olish maqsadida reja-grafik asosida joylarda sayyor qabullarni tashkil etish.<br>Bunda, har oyda kamida bir marta barcha hududlarda sayyor qabullarni tashkil etish hamda murojaatlar eng ko‘p yuboriladigan hududlarga alohida e’tibor qaratish. | 2023-yil davomida | Barcha vazir o‘rinbosarlari, B.Alimkulov | Eng avvalo fuqarolarning ortiqcha ovvoragarchiligini oldini olishga, yechimini kutayotgan masalalarni joyida hal qilishga va hududlardagi real holatlarni o‘rganishga erishiladi.<br>Shuningdek, sayyor qabullar natijasida fuqarolardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori tashkilotlarga yuborilayotgan hamda vazirlikka kelayotgan murojaatlar sonini kamayishiga erishiladi.<br>*Ma’lumot uchun: 2022-yil sayyor qabullar davomida 1 000 nafardan ortiq fuqarolarning 725 ta masala bo‘yicha murojaatlari ko‘rib chiqildi. Murojaatlarning 321 tasi joyida ijobiy hal qilindi, qolganlariga huquqiy tushuntirishlar berildi.*<br>*Yil yakunida Xalq ta’limi vazirligi tizimiga* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | *kelayotgan murojaatlar sonini 2 380 taga kamayishiga erishildi.* |
| **93.** | O‘tgan 2022-yil davomida Xalq ta’limi vazirligi “Call markaz”i tomonidan 60 800 nafar fuqarolarning ko‘ng‘iroqlariga javob berildi va ularga mutaxassislar tomonidan amaliy yordamlar ko‘rsatildi.<br>2023-yilda yangi tashkil etilgan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida ta’lim muassasalari soni ortganligini inobatga olib, “Call markaz”lar sonini ham ko‘paytirish.<br>Bunda, o‘tgan 2022-yil yakunida Xalq ta’limi vazirligining barcha hududiy boshqarmalarida sinov tariqasida tashkil etilgan “Call markaz”lar faoliyatini to‘laqonli yo‘lga qo‘yish hamda ushbu “Call markaz”lar qoshida, kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqishva ularni tezkorlik bilan xal qilish uchun “tezkor guruh”lar tashkil etish. | 2023-yil davomida | Barcha vazir o‘rinbosarlari, B.Alimkulov | Ushbu tizim joriy qilinsa, eng avvalom aholini ortiqcha ovvoragarchiligi oldi olinadi. Murojaatlar joyida, maktab, tuman, viloyat darajasida xal bo‘lishiga erishiladi.<br>To‘g‘ridan-to‘g‘ri Prezident virtual qabulxonasiga, vazirlik va boshqa davlat organlariga qilinayotgan murojaatlar sonini kamayishiga erishiladi. |
| **94.** | Aholi murojaatlarini tezkor hal qilishda ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish *(telegram botlarini tashkil etish)* hamda onlayin nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish.<br>Bunda:<br>a) vazirlikka kelayotgan murojaatlarning aksariyati joylarda maktab, tuman(shahar), viloyat darajasida hal etiladigan masalalar ekanligini inobatga olib har bir hudud rahbarining ijtimoiy tarmoqda o‘z “telegram bot”larini tashkil etish;<br>b) har chorak yakunida hudud rahbarlari mahalliy OAV orqali keng | 2023-yil davomida | Barcha vazir o‘rinbosarlari, B.Alimkulov, L.Rustamova | a) kelib tushayotgan murojaatlarga real vaqt tizimida javob berishga, aholi bilan muloqot tizimini yo‘lga qo‘yishga;<br>b) joylardagi pedagog xodimlar tomonidan hudud rahbarlari ustidan qilinayotgan shikoyatlarning kamayishiga;<br>v) “Call markaz”larga kelayotgan murojaatlarni joylarda ijrosini ta’minlanishiga va hisobotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga erishiladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | jamoatchilikni ushbu telegram bot va “Call markaz”lar to‘g‘risida xabardor qilish va kelib tushgan murojaatlar natijasi bo‘yicha ma’lumot berish tajribasini yo‘lga qo‘yish;<br>v) vazirlikning Murojaatlar bilan ishlash sho‘basi tomonidan hududiy boshqarmalarning “Call markaz”lariga kelib tushayotgan murojaatlarni onlayin nazorat qilish tizimini yo‘lga qo‘yish. | | | |
| **95.** | Hududlarda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlashga mas’ul xodimlarning malakasini oshirish va ularni rag‘batlantirish.<br>Bunda:<br>a) joylardagi jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlashga mas’ul xodimlarning malakasini oshirish maqsadida hududiy arxiv idoralari tomonidan har yili tashkil etiladigan o‘quv kurslariga yuborish;<br>b) ularga uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida joylarga chiqqan holda va onlayin shaklda o‘quv-amaliy seminarlar tashkil etish;<br>v) har chorak yakunida va bayramlarda hududiy boshqarmalar va tuman(shahar) bo‘limlarida yaxshi natija ko‘rsatayotgan mas’ul xodimlarni vazirlik rahbariyatining fahriy yorliqlari va tarmoq mukofotlari bilan taqdirlash tizimini yo‘lga qo‘yish. | 2023-yil davomida | Barcha vazir o‘rinbosarlari, B.Alimkulov, B.Xo‘jakulov | a) xodimlarning savodxonligi oshadi hamda har bir murojaatga berilayotgan javob xatlariga Qonun talablari asosida yondashadi;<br>b) o‘quv-amaliy seminarlar natijasida mas’ul xodimlarni tizimda bo‘layotgan yangiliklardan xabardor qilib borish va tizimga oid normativ-huquqiy xujjatlar bilan to‘g‘ri ishlashni yo‘lga qo‘yish;<br>v) xodimlarni rag‘batlantirish orqali ularga motivatsiya berish va ishchanlik kayfiyatini oshirish. |
| **96.** | Murojaatlar eng ko‘p yuboriladigan hududlarni tahlil qilish, sabablarini aniqlash va shartli ravishda qizil, sariq, yashil toifalarga ajratish.<br>Bunda: | 2023-yil davomida | Barcha vazir o‘rinbosarlari, B.Alimkulov, B.Xo‘jakulov | a) murojaatlar bilan manzilli ishlashga va sabablarini aniqlashga erishiladi;<br>b) takroriy va shikoyat shaklidagi murojaatlar bilan ishlashga alohida e’tibor qaratish orqali tizimga kelayotgan murojaatlar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | a) qizil toifadagi hududiy boshqarmalar bilan birgalikda koʻrsatkichlarni yaxshilash va murojaatlarda koʻtarilgan masalalarni hal qilish boʻyicha aniq choralarni koʻrish.<br>b) takroriy va shikoyat koʻrinishidagi murojaatlarga alohida e'tibor berish. | | | statistikasini sun'iy ravishda oshib ketishi oldi olinadi.<br>*Ma'lumot uchun: 2018-2022-yillar davomida Prezident virtual qabulxonasi orqali 3 477 ta takroriy va 3 621 ta dublikat murojaatlar kelib tushgan.* |
| **Xalqaro aloqalar va investitsiyalarni jalb qilish boshqarmasi** | | | | |
| **97.** | Xitoy Xalq Respublikasi hukumatining umumiy qiymati 12 mln. dollarga teng boʻlgan begʻaraz koʻmagi evaziga 1303 ta oʻquv kompyuter sinflari (OʻKS) toʻplami "Maktablarning 5-9-sinflarida "Informatika" va "Chet tili" fanlarini oʻqitish sifatini oshirish (2-bosqich)" loyihasi doirasida jalb qilish. | 2023-yil davomida | T.Komilov, S.Sirojov | Natijada 1303 ta maktablarning oʻquv sinf xonalari kompyuter oʻquv uskunalari 15+1 formatda toʻliq jihozlanadi. |
| **Sogʻlom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat koʻrsatishni muvofiqlashtirish shoʻbasi** | | | | |
| **98.** | Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi umumta'lim maktab boshlangʻich sinf oʻquvchilarini ovqatlantirish tajriba sinov natijalari boʻyicha tahliliy materiallarini tayyorlash va Respublikadagi barcha umumta'lim maktab boshlangʻich sinflarini bepul ovqatlantirish boʻyicha Vazirlar Mahkamasining tegishli normativ-huquqiy hujjatini ishlab chiqish;<br>Bunda:<br>a) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm viloyatida joylashgan umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida sogʻlom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2022-yil 25-avgustdagi 472-son son qaroriga ilovaga | 2023-yil 31-mart | T.Komilov, X.Turaxodjayev | Natijada, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahar va barcha viloyatlar boʻyicha jami 10 104 ta umumta'lim maktablarida 2 mln 655 ming 914 ta boshlangʻich 1-4-sinf oʻquvchilar bepul ovqatlantirish joriy etiladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | muvofiq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish.<br>b) Respublika Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bilan birgalikda umumtaʼlim maktablaridagi 7-11 yoshli oʻquvchilar uchun nonushtaga moʻljallangan 5 kunlik taomnoma”ni qayta koʻrib chiqish. | | | |
| **Darsliklarni yaratishni muvofiqlashtirish shoʻbasi** | | | | |
| **99.** | 2023-2024 oʻquv yiliga umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari uchun darsliklar va oʻquv-metodik majmualarni xarid qilishning istiqbol kvotalarini tasdiqlash.<br>Bunda, barcha hududiy taʼlim boshqarmalaridan fan, sinf, taʼlim tili boʻyicha buyurtmalar shakllantirilgan<br>1) 1-4-sinflar uchun:<br>382 nomda 39,2 mln nusxa darslik<br>312 nomda 29,2 mln nusxa mashq daftari<br>284 nomda 1,1 mln nusxa metodik qoʻllanma<br>2) 1-10-sinflar uchun ingliz tilidan (Kembridj universiteti darsliklari boʻyicha):<br>10 nomda 6,3 mln nusxa mashq daftari<br>3) 11-sinf uchun ingliz tilidan (Kembridj universiteti darsliklari boʻyicha):<br>1 nomda 640 796 nusxa darslik<br>1 nomda 458903 nusxa mashq daftari<br>1 nomda 19612 nusxa metodik qoʻllanma<br>4) 1-11-sinflar uchun nemis tilidan (Germaniya, Klett nashriyoti darsliklari boʻyicha):<br>11 nomda 231493 nusxa mashq daftari | 2023-yil yanvar | U.Sharifxodjayev<br>U.Xamutov | 2023-2024 oʻquv yili uchun chop etilishi rejalashtirilgan darsliklar va oʻquv-metodik majmualarning taʼlim tillari boʻyicha fanlar va sinflar kesimida ishlab chiqilgan nashr etish rejasi tasdiqlanadi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 5) 1-11-sinflar uchun fransuz tilidan (Fransiya, “Didier FLE” nashriyoti darsliklari bo‘yicha):<br>11 nomda 174238 nusxa darslik<br>11 nomda 151018 nusxa mashq daftari<br>11 nomda 7587 nusxa metodik qo‘llanma<br>6) 5-11-sinflar uchun informatika va axborot texnologiyalaridan (Kembridj universiteti darsliklari bo‘yicha):<br>49 nomda 4,9 mln. nusxa darslik<br>21 nomda 183946 nusxa metodik qo‘llanma<br>7) 2022-yildan 2023-yilga o‘tkazilgan darsliklar (*6-7 sinf Musiqa, 10-sinf Adabiyot, Davlat va huquq asoslari, Chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash)* va 2,3,4- sinf Russkiy yazык mashq daftarlari<br>35 nomda 3,5 mln nusxa darslik<br>9 nomda 1,8 mln nusxa mashq daftari<br>19 nomda 135503 nusxa metodik qo‘llanma<br>8) Maxsus ta’lim darsliklari:<br>24 nomda 19134 nusxa darslik<br>13 nomda 10158 nusxa mashq daftari<br>7 nomda 1052 nusxa metodik qo‘llanma<br>9) Ko‘zi ojiz bolalar maktab-internatlari uchun:<br>48 nomda 85277 nusxa darslik<br>jami 1260 nomda 88 mln nusxa darsliklar, mashq daftarlari va metodik qo‘llanmalarning nashr etish rejasini tasdiqlash. | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **100.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 28-dekabrdagi 726-son qaroriga muvofiq 2023-2024 o‘quv yili uchun chop etilishi rejalashtirilgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning texnik tafsilotlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>Bunda, darsliklarning hajmi (bosma tobog‘i), bichimi (formati), matn va muqova uchun ishlatiladigan qog‘oz turlari, zichligi, kimyoviy xavfsizligi, oqligi, shaffof emasligi, nashrning og‘irligi, muqovalash usullari bo‘yicha texnik talablar ishlab chiqiladi. | 2023-yil yanvar | U.Sharifxodjayev U.Xamutov | Texnik reglament bo‘yicha 2023-2024 o‘quv yili uchun chop etilishi rejalashtirilgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni chop etish uchun texnik tafsilotlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. |
| **101.** | 2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni qabul qilish hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazish tartibini ishlab chiqish. | 2023-yil yanvar-fevral | U.Sharifxodjayev U.Xamutov | Darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni qabul qilish hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazish tartibi ishlab chiqiladi va buyruq bilan tasdiqlanadi. |
| **102.** | 2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarning hududlar kesimida taqsimotini ishlab chiqish. | 2023-yil fevral-mart | U.Sharifxodjayev, U.Xamutov | 2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarning hududlar kesimida taqsimoti ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. |
| **103.** | Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kutubxona jamg‘armasidagi darsliklar hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarni xatlovdan o‘tkazish, foydalanish muddati | 2023-yil mart-aprel | U.Sharifxodjayev, U.Xamutov | Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kutubxona jamg‘armasidagi darsliklar hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarni xatlovdan o‘tkazish, foydalanish muddati tugagan va |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | tugagan va yaroqsiz holga kelganlarini hisobdan chiqarish va utilizatsiya qilish bo‘yicha tartibini ishlab chiqish. | | | yaroqsiz holga kelganlarini hisobdan chiqarish va utilizatsiya qilish tartibi ishlab chiqiladi va buyruq bilan tasdiqlanadi. |
| **104.** | Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kutubxona jamg‘armasidagi darsliklar hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarni xatlovdan o‘tkazish, foydalanish muddati tugagan va yaroqsiz holga kelganlarini hisobdan chiqarish va utilizatsiya qilish. | 2023-yil may-iyul | U.Sharifxodjayev U.Xamutov | Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kutubxona jamg‘armasidagi darsliklar hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarni xatlovdan o‘tkaziladi, foydalanish muddati tugagan va yaroqsiz holga kelganlarini hisobdan chiqariladi va utilizatsiya qilinadi. |
| **105.** | 2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish monitoringini olib borish. | Maxsus reja grafik asosida | U.Sharifxodjayev U.Xamutov | 2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni nashrning keyingi bosqichi uchun tasdiqlanadi hamda tender savdolarida g‘olib bo‘lgan va (yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri) shartnoma tuzilgan nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etiladi va kunlik monitoring yuritiladi. |
| **106.** | 2023-2024-o‘quv yili uchun chop etilgan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni qabul qilish hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazishni tashkil etish va kunlik monitoring yuritish. | Mahsulot tayyor bo‘lgan kundan boshlab | U.Sharifxodjayev U.Xamutov B.Islamov | 2023-2024-o‘quv yili uchun chop etilgan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni qabul qilish ishlari amalga oshiriladi hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkaziladi. |
| **107.** | 2023-2024 o‘quv yilida o‘quvchilarni darsliklar bilan to‘liq ta’minlash uchun chop etilib, joylarga yetkazilgan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni o‘quvchilar harakatini inobatga olgan holda, maktablararo, tumanlararo, hududlararo qayta taqsimotini o‘tkazish. | 2023-yil sentyabr-oktyabr | U.Sharifxodjayev U.Xamutov Hududiy boshqarmalar | 2023-2024-o‘quv yili uchun chop etilib, joylarga yetkazilgan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni o‘quvchilar harakati (yashash manzilini o‘zgartirib ko‘chish, maktabdan maktabga o‘tish, ta’lim tilini o‘zgartirish, yangi turar joy maskanlarining qurilishi) sababli yuzaga keladigan darsliklar yetishmasligi holati maktablararo, tumanlararo, hududlararo qayta taqsimotini o‘tkazish orqali bartaraf etiladi, o‘quvchilarni darsliklar bilan to‘liq ta’minlashga erishiladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Maktablar boshqarmasi** | | | | |
| **108.** | 2023-2024 oʻquv yilida maktablarning 1-sinfga qabul qilinadigan oʻquvchilar uchun “Prezident sovgʻasi”ni joylarga yetkazish jarayonini muvofiqlashtirish. | 2023-yil avgust-sentyabr | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | 2023-2024 oʻquv yilida maktablarning 1-sinfiga qabul qilinadigan 730 mingdan ortiq oʻquvchilar uchun tayyorlangan “Prezident sovgʻasi” hududlarga yetkaziladi;<br>Hududiy boshqarmalar tomonidan taqdim etilgan buyurtmalar asosida taqsimlanib, maktablarga yetkazilishi boʻyicha ishlarni muvofiqlashtirib boriladi. |
| **109.** | Maktab bitiruvchilariga shahodatnomalarni berish tizimini takomillashtirish.<br>a) e-shahodatnoma.uz elektron dasturi yaratiladi;<br>b) barcha bitiruvchilarning elektron bazasi shakllantiriladi;<br>v) maʼlumotlar Ichki ishlar vazirligi va Davlat personallashtirish markazi bilan integratsiya qilinadi;<br>g) bitiruvchilarning 6 yillik baholari shakllantiriladi;<br>d) bitiruvchilarning oliy taʼlimga hujjat topshirishlari uchun Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Bilim va malakalarni baholash agentligining elektron tizimiga integratsiya qilinadi. | 2023-yil, iyul | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | Natijada, 2022/2023 oʻquv yili yakunida 940 ming nafar 9 va 11-sinf bitiruvchilariga elektron shahodatnoma berish imkoniyati yaratiladi.<br>380 ming 11-sinf bitiruvchilarining shahodatnomalari elektron tarzda, oliy taʼlim muassasalari tizimlariga topshirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi;<br>12 ming nafardan ortiq bitiruvchilar oltin va kumush medallar bilan taqdirlanadi;<br>avvalgi qogʻoz shaklidagi attestatlardan voz kechilishi natijasida 1.8 mlrd. soʻm mablagʻ tejalishiga erishiladi. |
| **110.** | Maktab taʼlimida aholiga davlat xizmatlari koʻrsatishni kengaytirish.<br>2023-yilda 3 ta davlat xizmatini yoʻlga qoʻyish:<br>a) eksternat tartibida yakuniy davlat attestatsiyalarni topshirish uchun arizalarni qabul qilish;<br>b) xorijiy fuqarolar va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning farzandlarini | 2023-yil davomida | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | Aholiga maktab taʼlimi sohasida xizmatlarni koʻrsatish sifatini oshirish va qulay sharoitlar yaratish natijasida:<br>1100 nafar xorijiy fuqaro va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning farzandlarini umumtaʼlim maktablariga qabul qilish, 7200 nafar fuqaroga eksternat tartibida yakuniy davlat attestatsiyalarni topshirish, 11 ming nafar oʻquvchilarni bir maktabdan |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | umumta’lim maktablariga qabul qilish; v) farzandlarini bir maktabdan boshqasiga o‘tkazish. | | | boshqasiga o‘tkazish imkoniyatlari yaratiladi. |
| **111.** | Eksternat tartibida shahodatnoma olishga talabgorlardan arizani qabul qilish va eksternat tartibida yakuniy davlat attestatsiyalarni o‘tkazish ishlarini muvofiqlashtirish. | 2023-yil mart – iyun | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | Eksternat tartibida shahodatnoma olish bo‘yicha davlat xizmatlarini joriy etiladi; Nizomda belgilangan me’yorlar asosida talabgorlardan ariza qabul qilinadi; Hududlardan tavsiya etilgan maktablarda eksternat tartibidagi yakuniy davlat attestatsiyalarni o‘tkaziladi hamda imtihonlardan muvofaqiyatli o‘tgan talabgorlarga davlat namunasidagi xujjatlar beriladi. |
| **112.** | Umumiy o‘rta ta’lim maktabi bitiruvchilari uchun 1 905 ta kumush va 11 002 ta oltin medallar xarid qilish, hududlarga yetkazish hamda iqtidorli bitiruvchilarni oltin va kumush medallar bilan taqdirlash jarayonlarini muvofiqlashtirish. | 2023-yil may – iyun | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | Bitiruvchilar uchun oltin va kumush medallarga buyurtmalar shakllantiriladi; Buyurtmalar asosida medallar tayyorlanadi; bitiruvchilari uchun 1905 ta kumush va 11002 ta oltin medallar hududlarga yetkaziladi. |
| **113.** | Yangi tashkil etiladigan maktablar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha hokimliklar tomonidan kiritilgan takliflarni o‘rganib chiqish va xulosa berish. | 2023-yil davomida hududiy hokimliklar so‘rovi asosida | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | Investitsiya va boshqa dasturlar asosida yangidan qurilgan, shuningdek, maktab tashkil etish uchun vazirlikka o‘tkazilgan boshqa binolar negizida yangi maktablar tashkil etiladi; Hududiy hokimliklar tomonidan yuborilgan takliflar asosida tashkil etiladigan binolarning tayyorligi o‘rganib chiqiladi hamda talab darajasidagi muassasalarda maktab tashkil etish bo‘yicha rozilik beriladi. |
| **114.** | 2022-2023 o‘quv yili bitiruvchilarning oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda Rahbariyatga ma’lumot taqdim etish. | 2023-yil noyabr | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | Oliy ta’lim muassasalariga qabul bo‘yicha test sinovlarida qatnashgan maktab bitiruvchilarining natijalari Bilim va malakalarni baholash agentligining elektron tizimidan olinadi; |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | Har bir bitiruvchining to‘plagan ballari tahlil qilinadi;<br>Bitiruvchilarning oliy ta’limga kirishdagi test sinovlarida to‘plagan o‘rtacha ballari bo‘yicha hududlar, tuman (shahar)lar, maktablar kesimidagi tahlil qilinib reyting chiqariladi. |
| **115.** | 2023-2024 o‘quv yili uchun maktab hujjatlari *(sinf jurnallari, baholar ta’beli)* uchun buyurtmalarni shakllantirish, xarid qilish va maktablarga yetkazish. | 2023-yil iyul – avgust | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | 2023-2024 o‘quv yili uchun jami 1,3 mln. dona sinf jurnallari va boshqa maktab hujjatlariga buyurtmalari shakllantiriladi;<br>Tayyorlangan maktab xujjatlari hududlarga buyurtmalar asosida yetkazib berilishi muvofiqlashtiriladi. |
| **116.** | Xalq ta’limini boshqarishning erp.maktab.uz elektron platformasiga maktablar va o‘quvchilar haqidagi ma’lumotlarni kiritish orqali Asosiy ko‘rsatkichlarni shakllantirish. | 2023-yil sentyabr | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | 2023-2024 o‘quv yilida maktablarning 1-sinfiga qabul qilinadigan 730 mingdan ortiq o‘quvchilar elektron bazaga kiritiladi;<br>Yozgi ta’til davrida o‘qishini boshqa maktablarga ko‘chirgan, shuningdek, xorijiy davlatlardan kelgan fuqarolarning maktablarga qabul qilingan farzandlari elektron bazaga kiritiladi. |
| **117.** | Vazirlikning yagona elektron tizimi (erp.maktab.uz)da umumta’lim maktablarining sinflar jamlanmasi (titul)ni shakllantirish ishlarini muvofiqlashtirish. | 2023-yil sentyabr-dekabr | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | Yangi o‘quv yili uchun maktablarning sinflar jamlanmasi shakllantiriladi;<br>Shakllantirilgan sinflar jamlanmasi hududiy moliya organlari bilan kelishiladi. |
| **118.** | Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi xujjatlarning dublikatini berish hamda Xorijda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni nostrifikatsiya qilish ishlarini muvofiqlashtirish. | 2023-yil davomida doimiy | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | 30 ming nafar fuqaroga shahodatnoma dublikatini beriladi;<br>200 nafar fuqaroga xorijda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni nostrifikatsiya qilish bo‘yicha ishlar amalga oshiriladi va fuqarolarga davlat xizmati ko‘rsatiladi. |
| **119.** | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini yangi 2023-2024 o‘quv yiliga tayyorlash ishlarini muvofiqlashtirish. | 2023-yil iyul – avgust | U.Sharifxodjayev, E.Murodov | 10104 ta umumta’lim maktablarini yangi 2023-2024 o‘quv yiliga tayyorlash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirib boriladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Davlat xaridlari bo'limi** | | | | |
| **120.** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi tashkilot va muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlaridagi xavf-xatarlarni oldini olish va ular ustidan doimiy monitoring (nazorat) o'rnatish maqsadida markazlashtirilgan tartibda monitoring qilish imkoniyati mavjud avtomatlashtirilgan dasturiy majmua yaratish.<br>Yaratilgan dasturiy majmuani tegishli vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalash.<br>Mazkur dasturiy majmuani Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi tashkilot va muassasalariga bosqichma bosqich joriy etish. | 2023-yilmart<br>2023-yiliyun<br>2023-yil yakuniga qadar | T.Komilov<br>Sh.Yeshnazarov | Natijada, Dasturiy majmua foydalanuvchisiga vaqtini eng minimal tarzda sarflab maksimal tarzdagi qog'ozbozlik va ortiqcha ishlardan yuklamalarni kamaytirish imkoniyati;<br>tovar (ish, xizmat)ning turlarini ma'lum davrda hududlar kesimida eng ko'p xarid qilinayotganligi bilan bog'liq axborotlarni jamlash, qayta ishlash, tahlil qilish imkoniyati;<br>Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali http://xarid.uz/ va https://cooperation.uz/ bilan integratsiyalashuvi;<br>Xavf-tahlil modulini shakllantirish. Bunda bir hududdagi tashkilotlarning aynan bir tovar (ish, xizmat)ni yetkazib berishini nazorat va tahlil qilish imkoniyatini beradi. |
| **121.** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2023-yilda o'tkaziladigan:<br>markazlashtirilgan tadbirlar rejasiga muvofiq jami 61 ta tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish uchun 29,9 mlrd.so'mlik davlat xaridlarini amalga oshirish.<br>Markazlashgan xarajatlar rejasiga muvofiq jami 16 ta turdagi maktab hujjatlari xaridi uchun 11,2 mlrd.so'mga davlat xaridlarini amalga oshirish.<br>Vazirlikning markaziy apparati xarajatlar smetasida belgilangan 3,5 mlrd.so'mga davlat xaridlarini amalga oshirish.<br>Ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan belgilangan xaridlar uchun | 2023-yil davomida | T.Komilov<br>Sh.Yeshnazarov | Natijada, zarur tovar (ish, xizmatlar) xaridi o'z vaqtida amalga oshirilib vazirlik tomonidan rejalashtirilgan barcha tadbirlar yuqori saviyada o'tishi ta'minlanadi.<br>Shuningdek, vazirlik markaziy apparati xodimlarining ish unimi va sifatini oshirish maqsadida zarur moddiy texnika va tovar moddiy boyliklari bilan ta'minlanadi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 4,5 mlrd.so'mga davlat xaridlarini amalga oshirish.<br>Xalq ta'limi vazirligi hamda "Zamin" Xalqaro jamoat fondi o'rtasida imzolangan memorandumlarga muvofiq jami tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish uchun (50 ta tovar (ish, xizmatlar) xaridi uchun) 1,2 mlrd.so'mga davlat xaridlarini amalga oshirish. | | | |
| **Ta'lim sifati jarayonlarini muvofiqlashtirish departamenti** | | | | |
| **122.** | Umumta'lim maktablarida matematika va tabiiy fanlar yo'nalishlarida ta'lim sifatini baholash TIMSS-2023 *(Trends in International mathematics and science study)*da ishtirok etish. Bunda, xalqaro tadqiqotlar mezonlari asosida 150 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 4 va 8-sinflarda o'qiyotgan 4 000 nafar o'quvchi o'rtasida matematika va tabiiy fanlardan o'zlashtirish darajasi baholanadi. | 2023-yil sentyabr | U.Sharifxodjayev, D.Islamova | Natijada, mamlakatimizda o'qitilayotgan matematika va tabiiy fanlarni o'qitishda ta'lim sifati xalqaro darajada baholanib, O'zbekistonning ushbu fanlarni o'qitishda samaradorlik reytingi aniqlanadi. |
| **123.** | Xalqaro hamkorlar bilan mahalliy ta'lim guruhi (Local Education Group-LEG) doirasida ta'lim tizimini rivojlantirishning 2023-2026-yillar uchun yo'l xaritasini ishlab chiqish. Bunda:<br>a) Ta'limda global hamkorlik (GPE) va UNICEF texnik ko'magida amaldagi holat tahlil qilinadi;<br>b) Sohaning 4 yo'nalishi *(ta'lim mazmuni, infratuzilma, o'qituvchilar salohiyati, inklyuziv ta'lim)* bo'yicha bo'shliqlar va "o'sish nuqtalari" aniqlanadi. | 2023-yil noyabr | U.Sharifxodjayev, D.Islamova | Natijada, xalqaro moliyaviy institutlarining mablag'lari doirasida ilmiy asoslangan ta'lim tizimini rivojlantirish yo'l xaritasi ishlab chiqiladi. |
| **124.** | Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy | 2023/2024 o'quv yilidan | U.Sharifxodjayev, D.Islamova | Natijada o'quvchilar tomonidan olinayotgan bilim(ta'lim natijasi) orqali |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | rag‘batlantirish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va yuqori tashkilotlarga kiritish. Bunda:<br>a) Direktor jamg‘armasi mezonlari qayta ko‘rib chiqiladi va shaffof, soddalashtirilgan va maktab faoliyati natijalariga ko‘ra tabaqlashtirilgan rag‘batlantirish tizimi ishlab chiqiladi;<br>b) Bosqichma-bosqich pedagoglarining kasbiy kompetensiyalarini baholash va sertifikatsiyalash orqali rag‘batlantirish tizimiga o‘tiladi | | | pedagoglarni baholashva moddiy rag‘balantirish tizimi shakllantiriladi va tizimda faoliyat yuritayotgan 500 ming nafar o‘qituvchi uchun ish faoliyatini baholash joriy qilinadi. |
| **125.** | Jahon Banki ekspertlari bilan hamkorlikda maktab o‘quvchilari bilimini monitoring qilish tizimi takomillishtiriladi. Bunda,<br>a) Maxsus elektron platforma maktab o‘quvchilarining aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo‘yicha bilimini baholash tizimi tubdan takomillishtiradi;<br>b) Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari hamda Respublika ta’lim markazi uchun 400 ming nafar pedagog xodimlarning malakasini aniqlangan bo‘shliqlar asosida malakasini oshirish bo‘yicha hamda o‘quv dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi;<br>v) Nizomiy nomidagi Toshkent Davat pedagogika Universitetiga pedagoglarni tayyorlash o‘quv dasturlariga testologiya yo‘nalishida modullar joriy qilish bo‘yicha Imiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.<br>g) Maktab o‘quvchilari bilimlarini | 2023-yil yakuniga qadar | U.Sharifxodjayev, D.Islamova | Natijada o‘quvchilarning bilimini shaffof va xolis baholash va bu orqali o‘qituvchilar faoliyatiga baho berish, ta’limda bo‘shliqlarni aniqlash yo‘lga qo‘yiladi.<br>22 ta fan bo‘yicha o‘quv dasturlari va rejalarini ilmiy asoslangan holda takomillashtirish tizimi shakllantiriladi.<br>14 ta Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari uchun manzilli malaka oshirish dasturlari yaratish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | baholashning formativ va summativ shakllarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. | | | |
| **126.** | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024 o‘quv yiliga mo‘ljallangan 3 turdagi tayanch, 45 turdagi variativ, 54 turdagi ixtisoslashtirilgan sinflarning o‘quv rejalarini muvofiq ishlab chiqish.<br>Bunda:<br>ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumta’lim maktablar uchun;<br>ta’lim rus tilida olib boriladigan umumta’lim maktablar uchun;<br>ta’lim qardosh tillarida (*qoraqalpoq, qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik*) olib boriladigan umumta’lim maktablar uchun tayanch o‘quv rejasini amaliyotga joriy etish. | 2023-yil fevral-aprel | U.Sharifxodjayev, A.Dauletbayev | Umumta’lim maktablari o‘quvchilarida har bir fan bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni belgilangan standartlar asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, jamoada ishlash, hamkorlik qilish (4K) ko‘nikmalarni rivojlan-tirishga keng imkoniyatlar yaratiladi.<br>O‘quvchilarni ixtisoslashtirilgan chuqur o‘qitishga bo‘lgan ehtiyoji ta’minlanadi, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning ta’lim dasturlari amalga oshiriladi. |
| **127.** | 2023-2024 o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejadan kelib chiqib, yangi joriy etilgan fanlarning o‘quv dasturlarini ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.<br>Bunda:<br>1-4-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani;<br>5-6-sinflarda “Moliyaviy savodxonlik” fani;<br>11-sinfda “Geografiya” fani;<br>7-11-sinfda ikkinchi chet tili;<br>10-11-sinfda “Kasbiy ta’lim”<br>joriy qilinadi | 2023-yil aprel-may | U.Sharifxodjayev, A.Dauletbayev | Umumiy o‘rta ta’lim tizimida yangidan kiritilayotgan o‘quv fanining mazmuni va o‘tilish tartibi, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalar hajmi belgilab beriladi. |
| **128.** | Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun media-savodxonlik ko‘nikmalarini o‘qitish tizimi takomillashtiriladi. Bunda: | 2023/2024 o‘quv yili davomida | U.Sharifxodjayev, A.Dauletbayev | Maktab o‘quvchilariga media-savodxonlik, tanqidiy sog‘lom fikrlash, internet jahon axborot tarmog‘ida shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi to‘g‘risida tushunchalar beriladi va |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 2024-yilga qadar 10 ming nafar o‘qituvchilarni media savodxonlik bo‘yicha tizimli o‘qitiladi;<br>Umumta’lim fanlariga (*matematika, tarix, davlat va huquq asoslari, geografiya, tarbiya, fizika, ona tili, informatika va axborot texnologiyalari*) mediasavodxonlik va onlayn axborot xavfsizligi bo‘yicha tegishli mavzularni kiritiladi. | | | tegishli ko‘nikmalar shakllantiriladi. |
| **129.** | Ta’lim sifati yuqori bo‘lmagan umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga metodik yordam berishning yangi tizimini joriy qilish.<br>Bunda:<br>a) Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi fan metodistlari va tajribali o‘qituvchilardan iborat “Tezkor metodik guruhlar” shakllantiriladi;<br>b) ta’lim sifati yuqori bo‘lmagan umumta’lim maktablari ro‘yxatini shakllantirish;<br>v) o‘qituvchilarga manzilli metodik yordam ko‘rsatish bo‘yicha tajribali metodist va o‘qituvchilardan iborat “Tezkor metodik guruhlar” tashkil etish;<br>g)ushbu guruhlar uchun intensiv o‘quv dasturlarini ishlab chiqish. | 2023-yil davomida | U.Sharifxodjayev, A.Dauletbayev | a) Ta’lim sifati yuqori bo‘lmagan umumta’lim muassasalari o‘qituvchilariga zamonaviy metodikalar asosida o‘qitish uslublari tushuntiriladi<br>b) Ushbu maktablarda o‘qituvchilar salohiyati oshirilishiga erishiladi. |
| **130.** | Jahon banki va YUNESKO tashkilotining texnik ko‘magida umumta’lim maktablarida dars berayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun dars taqsimoti va ularning ish haqi to‘lovlari mexanizimini ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. Bunda: | 2023-yil davomida | U.Sharifxodjayev, D. Islamova, A.Dauletbayev | a) Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining dars taqsimoti va mehnatga haq to‘lashning shaffof tizimi shakllantiriladi<br>b) Ushbu yo‘nalishda pedagoglarning murojaatlari va shikoyatlarini keskin kamayishiga erishiladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | a) 119 ming nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun “stavka” ga asoslangan dasr taqsimioti va mehnatiga haq to‘lash tizimidan “shtat” asosida haq to‘lash tizimiga o‘tish uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi;<br>b) Boshlang‘ich sinf o‘qiuvchilarining shaffof va adolatli dars taqsimoti va soddalashtirishgan ish haqi to‘lovi tizimiga o‘tish uchun takliflar ishlab chiqiladi; | | | |
| **131.** | Vazir jamg‘armasi tanlovini belgilangan mezonlar asosida o‘tkazish va tanlov asosida saralab olingan pedagog xodimlarga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 5,5 baravari (5,0 mln. so‘m) miqdorida har oylik ustama hamda ilg‘or xodimlarga bir martalik pul mukofotlari to‘lab berilishi bo‘yicha Vazirlik rahbariyatiga taklif kiritish. | 2023-yil mart oyida | U.Sharifxodjayev, D. Islamova | Natijada, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan 2 mingga yaqin malakali pedagog kadrlarga har oylik oshirilgan ustama to‘lanib, ularning oylik ish haqi 1 000 AQSH dollari ekvivalentigacha yetkaziladi.<br>Shuningdek, mingdan ortiq ilg‘or xodimlar bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi. |
| **Ta’lim muassasalarini infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi** | | | | |
| **132.** | Umumta’lim maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan 2023-yil investitsiya dasturi asosida qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish. Bunda:<br>a) 22 ta mahallalarda yangi maktab binolari quriladi;<br>b) 205 ta umumta’lim maktablari rekonstruksiya qilinadi;<br>v) 9 ta maktablarning bino va inshootlari mukammal ta’mirlanadi. | 2023-yil davomida | T.Komilov Q.Oqilov | Natijada, maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun 236 ta umumta’lim maktablarida jami 104,3 ming o‘quvchilarga zamonaviy shart-sharoitlar yaratiladi, shundan qo‘shimcha 76,1 ming yangi o‘quvchi o‘rni yaratiladi. |
| **133.** | 2023-yil “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari doirasida qurilish-ta’mirlash ishlarini olib borilishi rejalashtirilgan umumta’lim obyektlarini | 2023-yil davomida | T.Komilov Q.Oqilov | Umumta’lim maktablarini moddiy-texnika bazasi yaxshilanadi.<br>O‘quvchilar uchun zarur shatr-sharoitlar yaratiladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | monitoring qilish va tahliliy ma’lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga, Bosh prokuratura xuzuridagi Respublika shtabiga va Qurilish vazirligiga kiritib borish. | | | |
| **134.** | 2023-2024-yil kuz-qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan joriy va mukammal ta’mirlashga hamda ko‘mir (import) mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirib, Vazirlar Mahkamasi qaroriga taklif kiritish. | 2023-yil yanvar-avgust | T.Komilov Q.Oqilov | Umumta’lim maktablarini kuz-qish mavsumini betalofat o‘tkazish uchun moddiy-texnika bazasi yaxshilanadi. Kuz-qish mavsumida umumta’lim maktablarining o‘quvchilari uchun zarur-shart-sharoitlar yaratiladi. |
| **135.** | Mahalliy hokimliklar bilan birgalikda 2024-yilgi Investitsiya dasturini manzilli ro‘yxatini shakillantirish. | 2023-yil may-dekabr | T.Komilov Q.Oqilov | Umumta’lim maktablarini moddiy-texnika bazasi yaxshilash, yangidan maktab binolari qurish, qo‘shimcha o‘quv binolari qurish, ta’mirtalab maktablarni mukammal ta’mirlash orqali maktab binolarini zamonaviy qiyofaga keltirish. |
| **136.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 9-sentyabragi PF-220-son farmoniga asosan umumta’lim obyektlariga o‘rnatiladigan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini mahalliy hokimliklar, homiylar tomonidan o‘rnatiladigan umumta’lim maktablari bo‘yicha monitoring olib borish. | 2023-yil davomida | T.Komilov Q.Oqilov | Umumta’lim maktablarini elektr energiyaga bo‘lgan talabini o‘rnatiladigan quyosh panellari orqali xal etiladi, natijasida maktablarda muqobil elektr energiya bilan ta’minlanganlik xolati ko‘payadi. Umumta’lim maktablari uzluksiz qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali elektr energiya bilan ta’minlanadi. |
| **137.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi PQ-465-son | 2023-yil davomida | T.Komilov Q.Oqilov | 236 ta umumta’lim maktablari zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanib, moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | qaroriga asosan, 2023-yilda Investitsiya dasturi doirasida 236 ta umumta’lim maktablarini zamonaviy mebel, o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari, sport anjomlari va texnik vositalar bilan jihozlash. | | | |
| **138.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 11-avgustdagi PQ-349-son qaroriga asosan 2023-yilda umumta’lim maktablarini 3 225 ta 14 512,5 mln.so‘mlik chiqindi konteynerlari bilan ta’minlash. | 2023-yil davomida | T.Komilov Q.Oqilov | Umumta’lim maktablari qo‘shimcha chiqindi konteynerlar bilan ta’minlanadi. |
| **Moliya departamenti** | | | | |
| **139.** | 17 mingga yaqin ta’lim tashkilotlari xodimlarini ish haqi bilan ta’minlash xarajatlariga jami 32,5 trln. so‘m *(yoki jami vazirlikka ajratilgan byudjetning 85 foizi)* mablag‘lari yo‘naltiriladi. | 2023-yil davomida | T.Komilov, I.Siradjev | Natijada, davlat ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan 1 mln. nafardan ortiq xodimlar yil davomida to‘liq ish haqi bilan ta’minlanadi. |
| **140.** | Byudjet kodeksiga muvofiq ta’lim tizimi uchun 2024 yil byudjeti so‘rovi va 2025-2026 yillar uchun byudjeti mo‘ljallari ishlab chiqish va Davlat dasturlari ta’lim tizimi bo‘yicha vazifalarni bajarish uchun kelgusi yillarda talab etiladigan xarajatlar bo‘yicha talab etiladigan mablag‘lar hajmini aniqlab, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish. | 2023-yil iyun | T.Komilov, I.Siradjev | Natijada, 2024 yil uchun ta’lim tashkilotlari uchun talab etiladigan mablag‘lar miqdori aniqlanadi hamda kelgusi yilda ta’lim tashkilotlarini rivojlantirish ishlari uchun mablag‘lar ajratish yo‘nalishlari belgilanadi. |
| **141.** | Vazir jamg‘armasi uchun 150 mlrd. so‘m yo‘naltirish hamda ushbu mablag‘lar hisobidan belgilangan mezonlar asosida saralab olingan pedagog xodimlarga mehnatga haq | 2023-yil davomida | T.Komilov, I.Siradjev | Natijada, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan 2 mingga yaqin malakali pedagog kadrlarga har oylik oshirilgan ustama to‘lanib, ularning oylik ish haqi 1 000 AQSH dollari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | to‘lashning eng kam miqdorining 5,5 baravari (5,0 mln. so‘m) miqdorida har oylik ustama hamda ilg‘or xodimlarga bir martalik pul mukofotlari to‘lab berilishini ta’minlash. | | | ekvivalentigacha yetkaziladi. |
| **142.** | 2023/2024 o‘quv yilida umumta’lim muassasalarining 1-sinfiga keladigan o‘quvchilar va yakka tartibda uyida ta’lim oladigan bolalarni “Prezident sovg‘asi” (12 nomdagi o‘quv qurollari) bilan ta’minlash va ushbu maqsadlarga dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra 142,8 mlrd. so‘m ajratish. | 2023-yil sentyabr | T.Komilov, I.Siradjev | Natijada, 732 mingdan ortiq o‘quvchilar 12 nomdagi o‘quv qurollari bilan bepul ta’minlanishiga erishiladi. |
| **143.** | Har yil 2 marta respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan 10 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarining sinflarni komplektlash hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tarifikasiya ro‘yxatlarini shakllantirish va ularni tasdiqlash jarayonlari amalga oshiriladi. | 2023-yil sentyabr va dekabr oylarida | T.Komilov, I.Siradjev | Natijada, 2023-2024 o‘quv yili boshida mavjud o‘quvchilar, sinflar soni hamda ularning harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar shakllanadi hamda kelgusi moliya yili uchun o‘qituvchilarning ish haqi to‘lovlari uchun zarur bo‘ladigan mablag‘lar miqdori aniqlanadi. |
| **144.** | Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan 17 mingga yaqin ta’lim tashkilotlarining yillik shtatlar jadvallari, ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar smetasi shakllantirish va ularni ijroga berilishini ta’minlash. | 2023-yil dekabr | T.Komilov, I.Siradjev | 2024 yil davomida ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lanilishiga yerishiladi. |
| **145.** | Vazirlikning markaziy apparati va markazlashgan xarajatlar hamda respublika tashkilotlarining 2023-yil uchun xarajatlar smetalarini shakllantirish, tasdiqlash va ijroga berilishini ta’minlash. | 2023-yil noyabr-dekabr | T.Komilov, I.Siradjev | Vazirlikning markaziy apparati va markazlashgan xarajatlar hamda respublika tashkilotlarinig 2023-yil uchun saqlash xarajatlari ajratiladi. |
| **146.** | Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan qamrab olingan umumta’lim muassasalari va maktabgacha ta’lim tashkilotlarning | 2023-yil mart | T.Komilov, I.Siradjev | Natijada, umumta’lim muassasalari va maktabgacha ta’lim tashkilotlarining raxbar xodimlari, tuman (shahar) bo‘limlari xodimlari hamda hududiy boshqarmalar xodimlarining |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | shtatlar jadvali, tarifikasiya ro‘yxatlari hamda xarajatlar *(birinchi va ikkinchi guruhlar bo‘yicha)* smetasini shakllantirish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda ushbu jarayonlarning har bir bosqichida mas’ul xodimlarga tegishli vazifalarni belgilanishini nazarda tutuvchi yo‘riqnoma ishlab chiqish. | | | moliyalashtirish jarayonida amalga oshiradigan vazifa va majburiyatlari hamda javobgarliklari belgilanadi. |
| **147.** | Vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarda ish haqiga qo‘shimcha va ustama to‘lovlarning hisoblanishiga oid normativ-xuquqiy hujjatlarni inventarizasiyadan o‘tkazish va natijalarini yagona normativ-xuquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish uchun Yuridik bo‘limiga taqdim etish. | 2023-yil mart | T.Komilov, I.Siradjev | Natijada, ushbu qaror tasdiqlanishi bilan ish haqi to‘lovlarini hisoblash jarayonida har biri alohida xujjatlarda bo‘lgan ustama va qo‘shimcha to‘lovlar bo‘yicha turli hil tushunmovchiliklarning oldi olinadi. |
| **Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi** | | | | |
| **148.** | Markaziy apparat xarajatlari uchun ajratilgan 16,3 mlrd. so‘m, markazlashgan tadbirlar uchun ajratilgan 29,0 mlrd.so‘m, markazlashgan xaridlar uchun ajratilgan 11,2 mlrd. so‘m, darsliklarni yaratish va chop etish uchun ajratilgan 920,0 mlrd. so‘m mablag‘larni maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash. | 2023-yil davomida | T.Komilov J.Shokirov | Xodimlar o‘z vaqtida ish haqi va zarur sharoitlar bilan ta’minlanadi, 61 ta tadbirlarni tashkil qilish uchun tovar va xizmatlar xarid qilinadi, barcha umuta’lim muassasalari maktab hujjatlari va 88 mln. nusxadagi darsliklar bilan ta’minlanadi. |
| **149.** | Tizimdagi barcha moliya buxgalteriya xodimlari uchun onlayn malaka oshirish platformasi yaratiladi. | 2023-yil davomida | T.Komilov J.Shokirov | Tizimda faoliyat yuritayotgan 4 mingdan ortiq hisobchi va iqtisodchilarning malakasi oshiriladi, bilim darajasi baholanib, sertifikatlar taqdim etiladi. |